


2019-yilning yanvar-oktabr oylarida Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 5692,5 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi* 101,2 % ni tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish – 35,8 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 5,8 % ga o'sishi hisoblangan bo'lsa tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 16,9 % ga kamayishi kuzatildi.

2019-yilning yanvar-oktabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



* *Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

2019-yilning yanvar-oktabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga qo'shgan hissasi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi 19,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajim indeksi 83,1 % ni tashkil etganni kuzatish mumkin.



Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3232,8 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 56,8 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 5,3 % ni (2018-yil yanvar-oktabr oylarida – 5,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 5,8 % (6,1 %), o'rta-quyi texnologiyali – 19,9 % (20,0 %) va quyi texnologiyali – 69,0 % (68,6 %) tashkil etdi.


***Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha
ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi***

**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %**

O'rta yuqori
texnologiyali




2018 yil
yanvar-oktabr



O'rta-quyi
texnologiyali



2019 yil
yanvar-oktabr



Yuqori
texnologiyali



Quyi texnologiyali









Jami sanoat tarkibida yog`och va po`kak buyumlar, qog`oz va qog`oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish – 0,5 % (2018-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi o'sishi 19,7 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish – 3,0 % (26,5 %), boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish sohasi - 8,2 % (12,5 %), mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar, kompyuter elektron va optik mahsulotlar, elektr uskunalar, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim priseplar, boshqa transport uskunalari, mashina va uskunalarni ta`mirlash va o`rnatish – 3,1 % (7,9 %) ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda yumshoq bug`doy va spelta uni - 3,4 m., boshqa tolali materiallardan(yog`ochdan tashqari) olingan seluloza - 1,9 m., etilen polimerlardan qoplar va sumkalar - 2,4 m., yo`l qoplamalari uchun asfaltli aralashmalar - 1,3 m. ga oshdi.

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari sanoat sohasida xizmatlar ko`rsatish hajmini oshirish imkonini berib, trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonning bir qismini bajarish (2018-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan 409,8 %), tayyor metal buyumlarini ta`mirlash va texnik xizmat ko`rsatish (106,1 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018-yil yanvar-oktabrda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-oktabrda ishlab chiqarilgan	2018 yil yanvar-oktabrga nisbatan, %
578,0	Sellyuloza, ming t 90% 	1142,6	197,7 ↑
29,6	Un, ming tonna 	30,6	103,4 ↑
1051,0	Ho'jalik sovuni tona 	804,4	76,5 ↓
3586,7	Kalava ip, tonna 	2555,6	71,3 ↓
33,9	Paxta tolasi. ming tonna 	20,5	60,6 ↓
54,1	Paxta urug'i, ming tonna 	32,1	59,6 ↓
29,5	Kunjara, ming tonna 	17,2	58,3 ↓
6,4	O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna 	3,1	47,8 ↓
825,8	Aroq – mig litr 100 % spirt 	333,2	40,3 ↓



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2273,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 39,9 % ni) tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-oktabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 93,8 % ni tashkil etgani kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018-yil yanvar-oktabrda ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2019-yil yanvar-oktabrda ishlab chiqarilgan	2018-yil yanvar-oktabrga nisbatan, %
12847,9	<p>Elektroenergiya, mln.kVt/s</p> 	12095,7	94,0 ↓
177,4	<p>Issiqlik energiyasi, ming Gkal</p> 	170,5	96,1 ↓



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 166,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,9 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar – 1,4 martaga, oqova suvlarni yo'qotish, shahar ho'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar – 4,0 % ga oshganligi kuzatildi.


Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018-yil yanvar-oktabrda ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2019-yil yanvar-oktabrda ishlab chiqarilgan	2018-yil yanvar-oktabrga nisbatan, %
8136,6		11516,8	141,5 ↑
2038,1		8235,5	404,1 ↑

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 2136,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018-yilning mos davriga nisbatan 4,4 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 37,5 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-oktabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va 2018 yil yanvar-oktyabrga nisbatan o'sishi sur'ati



2018-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 64,3 % dan 2019-yilning yanvar-oktabr oylarida 65,1 % ga oshishi kuzatilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo 3,5 % ni (2018-yil yanvar-oktabr oylarida 4,4 %) tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-oktabr oylarida iste'mol tovarlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**


	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018 yil yanvar-oktabrga nisbatan o'sish, %
Sirdaryo viloyati	2136,1	100,0	104,4
Guliston shahri	394,5	18,5	108,5
Shirin shahri	18,8	0,9	90,9
Yangiyer shahri	123,4	5,8	199,7
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut tumani	206,0	9,6	43,2
Guliston tumani	60,4	2,8	90,6
Mirzaobod tumani	264,2	12,4	178,3
Oqoltin tumani	66,9	3,1	103,9
Sardoba tumani	58,9	2,8	102,3
Sayhunobod tumani	128,5	6,0	108,3
Sirdaryo tumani	722,1	33,8	127,3
Xovos tumani	92,4	4,3	92,1

Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1364,8 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 24,0 % ni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %.



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalar ulushi – 95,6 % va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarining ulushi - 4,4 % ni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %




Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

	2019 yil yanvar-oktabr, mlrd. so'm	2018 yil yanvar-oktabrga nisbatan, %
Sirdaryo viloyati	5692,5	101,2
Guliston shahri	899,8	117,2
Shirin shahri	2181,7	117,4
Yangiyer shahri	204,6	102,9
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut tumani	229,5	101,1
Guliston tumani	89,0	97,8
Mirzaobod tumani	211,9	102,0
Oqoltin tumani	139,2	110,0
Sardoba tumani	173,1	80,6
Sayhunobod tumani	242,7	108,5
Sirdaryo tumani	1197,0	103,7
Xovos tumani	124,0	105,5

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 38,3 %), Sirdaryo tumani (21,0 %), Guliston shahri (15,8 %), Sayhunobod tumani (4,3 %), Boyovut tumani (4,0 %) va Yangiyer shahri (3,6 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**2019-yil yanvar-oktabr oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab
chiqarish fizik hajm indeksi 2018-yil yanvar- oktabr
oylariga nisbatan %**




Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida, Shirin shahri (2018-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 117,4 %), Guliston shahri (117,2 %), Oqoltin tumani (110,0 %), Yangiyer shahri (102,9 %), Sirdaryoi (103,7 %) va Xovos (105,5 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Shu bilan birga, Yangiyer shahri (2018-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan 199,7 %), Mirzaobod tumani (178,3 %), Sirdaryo tumani (127,3 %), Sayhunobod tumani (108,3 %), Guliston shahri (108,5 %), Oqoltin (103,9 %) va Sardoba tumanlarida (102,3 %) iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish sezilarli darajada oshdi.

Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta ulushi Sirdaryo tumani (viloyat iste'mol tovarlari hajmida 33,8 %), Guliston shahar (18,5 %), Mirzaobod (12,4 %) va Boyovut (9,6 %) tumanlarida ishlab chiqarildi.

2019-yil yanvar-oktabr oylarida hududlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishining, 2018-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sishi %




Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Shirin shahrida (117293,9 ming so'm), Guliston shahrida (10042,4 ming so'm) va Sirdaryo tumanida (9454,8 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (6810,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 2555,7 ming so'm bo'lgani holda Sirdaryo tumanida – 5703,9 ming so'mni, Guliston shahrida – 4403,1 ming so'mni, Mirzaobod tumanida - 3673,3 ming so'mni va Yangiyer shahrida – 2883,4 ming so'mni tashkil etdi.

**2019-yil yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan
sanoat mahsulotlari va iste'mol mollari ishlab chiqarish,
ming so'm**

	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	Istemol mollari
Sirdaryo viloyati	6810,9	2555,7
Guliston shahri	10042,4	4403,1
Shirin shahri	117293,9	1011,1
Yangiyer shahri	4781,1	2883,4
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut tumani	1792,7	1609,2
Guliston tumani	1248,6	847,4
Mirzaobod tumani	2947,3	3673,3
Oqoltin tumani	2712,6	1303,7
Sardoba tumani	2659,6	905,5
Sayhunobod tumani	3181,4	1684,0
Sirdaryo tumani	9454,8	5703,9
Xovos tumani	1315,2	979,7

2019-yil yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va istemol mollarining o'sishi 2018-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan %




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2779,8 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida kichik biznesning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 48,8 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-oktabr oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik tadbirkorlik sub'ektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Mirzaobod tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Sirdaryo tumanida (85,0 %), Guliston shahrida (81,6 %), Guliston tumanida (73,4 %), Sayhunobod tumanida (67,3 %), Sardoba tumanida (90,5 %) va Boyovut tumanida (62,4 %) kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush Xovos tumanida (57,2 %), Oqoltin tumanida (49,2 %) va Shirin shahrida (0,9%) kuzatildi.

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Viloyatda 1662 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 471 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 28,3 %) Guliston shahriga, 308 tasi (18,5 %) Sirdaryo tumaniga, 133 tasi (8,0 %) Boyovut tumaniga to'g'ri kelmoqda.


Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik (2019-yil yanvar-oktabr)



2019-yil yanvar-oktabr oylarida Viloyatda 471 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 21,6 foizi Guliston shahriga, 16,6 % Sirdaryo tumaniga, 10,1 % Xovos tumaniga va 10,2 % Yangiyer shahriga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-oktabr oylarida viloyatda 471 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 18,0 foizi Guliston shahri, Sirdaryo tumanlariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2019-yil yanvar-oktabr)



**Sirdaryo viloyati Statistika
boshqarmasi**
Sanoat statistikasi bo`limi
Aloqa telefoni: (0371) 230-86-23